

ALEKSANDR FAYNBERG POETIKASIDA FALSAFIY MUSHOHADA VA  
LIRIZM

Nurmaxmatova Firuza  
Rasulovna  
O'zbekiston Davlat  
Jahon tillari  
Universiteti 2-bosqich  
talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

Ilmiy rahbar:  
Bannopova Z.X

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshidagi o'zbek adabiyotida ko'p millatli ijodkorlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ichida atoqli ijodkor Aleksandr Arkadevich Faynberg (1939-2009) serqirra ijodiy yo'li bilan ajralib turadi. U o'zining she'riyat, dramaturgiya, tarjimonlik sohasidagi salmoqli asarlari bilan zamonaviy o'zbek adabiyoti shakllanish jarayonida muhim rol o'ynagan bo'lib, uning asarlarida falsafiy mushohada va lirizm juda ajoyib tarzda uyg'unlashgan. Faynberg she'rida inson taqdiri, vaqt, hayot va o'lim, vatan va muhabbat mavzulari kuchli falsafiy yondashuv bilan yoritib berilgan dolzarb mavzulardandir.

Kalit so'zlar: lirizm, ichki kechinmalar, ruhiyat, Chernova, falsafiy ramz, vaqt, mazmuniy chuqurlik, falsafiy ruh.

Adabiyot inson qalbidagi eng nozik kechinmalarni, tuyg'ularni, orzu va umidlarini ifodalay oladigan badiiy sohadir. Har qanday asarni o'qir ekanmiz bexosdan asar muallifi hayotga qanday nigoh bilan qaragani-yu, dunyoqarashini sezamiz va yoki his qilamiz. Mana shunday insonning ruhiga, qalbiga yaqin bo'ladigan, unga ta'sir qiladigan badiiy uslub adabiyotda lirizm atamasi bilan kirgan. Lirizm nafaqat she'riyatda, balki nasr va nazmda ishlatilib, muallif va kitobxon o'rtasida ruhiy

bo'g'liqlikni yaratadi. Lirizm-ijodkorning yoki lirik qahramonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, kayfiyatini samimiy tarzda ifodalash demakdir.

Faynberg asarlarida lirizm muhim rol o'ynaydi. Chunki ijodkor she'rlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalarini samimiyat ila aks ettirishga harakat qiladi. She'rlarida "men" obrazi orqali hayot mazmunini, inson qadr-qimmatini, mehr-muhabbat kabi mavzularni badiiy talqin qiladi. Misol uchun Toshkent haqidagi O'sha mashhur satrlarida shoir bu shaharni lirizmga to'la yorqin obraz sifatida aks ettirgan: "Ташкент-сладкий город, синий омут...".

Faynberg she'riyatidagi yana bir muhim jihat falsafiy mushohada hisoblanadi. U hayot va o'lim, vaqt o'tkinchiligini, insoniylik va abadiylik kabi mavzulari haqidagi falsafiy g'oyalarni badiiy uslubda qog'ozga tushirdi. Shoir hayotdagi real vodealiklardan xulosa chiqaribgina qolmay, ularning tag zamirida yoygan falsafiy ma'no-mazmunni qidirishga harakat qiladi. Chernova(2023) qayd etganidek, Faynberg ijodida Sharqona falsafiy ramzlar va G'arbona tafakkur uslubi chatishib, o'ziga xos badiiy tizimni hosil qiladi.

Ijodkor she'riyatida tabiat manzaralari, shahar obrazi, inson qiyofasidan falsafiy razm sifatida foydalanadi. Masalan, "shahar" obrazi bir tomonda Toshkentning jonli obrazini ochib bersa, ikkinchi tarafdan vaqt va abadiyat o'rtasidagi falsafiy ziddiyatni ochib beruvchi falsafiy ramz ham sanaladi. Shu bilan bir qatorda, "osmon", "abadiy ko'k", "yo'l", "iztirob" kabi timsollar hayotning mohiyatini izlash, insonning dunyodagi o'rni haqidagi mushohadani tushuntirib beradi.

Faynbergning tarjimalarida ham falsafiy ruh yaqqol seziladi. Buni biz tarjimon Abdulla Oripov, Erkin Vohidoning falsafiy mazmunli she'rlarni rus tiliga o'girish jarayonida mazmuniy chuqurlikni saqlab qolishga astoydil harakat qilganidan sezishimiz mumkin. Shu boisdan ham uning tarjima asarlari badiiy go'zallik va falsafiy ruhni birdek asliga yaqin yetkazgani uchun sevib mutoala qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg she'riyati o'zida lirizm va falsafiy mushohadalarni mujassamlashtira olgan o'zbek

adabiyoti durdonalaridandir.Uning she'rlaridagi lirizm samimiy tuyg'ular, kechinmalar bilan o'quvchi qalbiga ta'sir eta olsa,ular tubida yashiringan falsafiylik insonni reallikka shunchaki qaramasdan,atrofimizda sodir bo'layotgan voqealardan ma'no qidirib yashashga chorlaydi.Yuqoridagi mulozazalardan kelib chiqib Faynberg ijodi adabiyotimizning nafaqat badiiy ,balki falsafiy qimmatini ham oshirgan desak also mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlat ro'yxati:

- 1.Temirboyeva M.Explorining the poetic Themes of Aleksandr Feinberg. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,2024.
- 2.Chernova T.A The Theme of the East in the Poetry of Aleksandr Fainberg.International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research,2023.
- 3.Akbarova M. An Analysis of Stylistic Devices in the Translation of Alexandr Fyenberg's "Sweet City.Blue Abyss".IJODKOR O'QITUVCHI,2023.
- 4.Saydamatov I.N.Aleksand Faynberg-O'zbekiston mustaqillik davri adabiyotining yorqin vakili.Scientific Journal,2021.